


VIZA OLİSH UCHUN KERAKLI BO'LGAN HUJJATLAR

- Amaldagi yo'l hujjati
- To'ldirilgan va imzolangan viza anketasi (vizes.pmlp.gov.lv)
- Muddati 6 oydan oshmagan rangli fotosurat (35x45mm)
- Amalda bo'lgan sayohat tibbiy sug'urtalash polisining nusxasi
- To'lov yoki viza uchun to'lovni tasdiqlovchi hujjat
- Safar maqsadini asoslovchi hujjatlar
- Arizachining yashash xarajatlari uchun zarur mablag'ga ega ekanligi haqidagi tasdiqnomasi yoki turar joyi haqida hujjat
- Ariza beruvchining yashash uchun rejalashtirgan muddatiga, turar joyiga va o'z mamlakatiga qaytish uchun ham yetarli miqdorda moddiy imkoniyatga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat
- Ariza beruvchi so'rayotgan vizaning amal qilish muddati yakunlanganiga qadar mamlakat hududini tark etish niyati borligi haqidagi ma'lumot



Viza olgанингиздан со'нг undagi mavjud bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni to'g'ri ekanligini tekshirib chiqishingizni so'raymiz:

1. Ism, familiya to'g'ri yozilganini
2. Pasport raqamini
3. Tavsiya etilgan sayohat rejasiga safarlar soni mos kelishi
4. Viza muddati rejalashtirilgan safar sanalariga mos kelishini tekshirish (faqat bir martalik kirish vizalari uchun)



! Agar biror xato aniqlansa, viza beradigan konsulluk vakiliga darhol xabar bering.

SHENGEN VIZASI NIMA?

Yagona viza – bu butun Shengen hududiga amal qiluvchi kirish vizasi bo'lib, bunda viza yorlig'ining yuqorisida "SHENGEN MAMLAKATLARI SHARTNOMASI" aniq so'zlar bilan ko'satilgan. Yagona viza uning egasiga hohlagan 180 kunlik davrning ichida 90 kungacha Shengen hududida turish huquqini beradi.



BIR MARTALIK YAGONA VIZA

Bir martalik yagona viza ko'zdautilgan 15 kunlik muddatdan ortiq bo'lgan safar uchun beriladi. Bu sayohatchilarga vizadan foydalanish uchun kengroq imkoniyat yaratadi, ammo cheklangan istiqomat muddati o'zgarmaydi. Shu sababli sayohatchilar ko'zdautilgan safar sanasi vizada ko'satilgan muddatga mos kelishi va undan ortib ketmasligiga e'tibor berishi kerak. Sayohatchi safar muddatini to'laligicha qoplaydigan amaldagi tibbiy sug'urta polisiga ega bo'lishi kerak.



KO'P MARTALIK YAGONA VIZA

Ko'p martalik kirish vizasi egalari Shengen hududiga kirishi va vizada belgilangan 180 kunlik davrning ichida 90 kungacha turish mumkin (maksimal muddat 5 yilgacha). Sayohatchilar safar muddatini to'laligicha qoplaydigan amaldagi tibbiy sug'urta polisiga ega bo'lishi kerak.



HUQUQ VA MAJBURIYATLAR

Yagona viza Shengen hududiga kirishni avtomat ravishda kafolatlamaydi. Tashqi chegaraga o'tganda viza egasi chegaralar to'g'risidagi Shengen kodeksining 6-moddasiga muvofiq kirish shartlariga mos tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilishi lozim. Vizaning egasi VIS ga kiritilgan o'zining shaxsiy ma'lumotlari, va ushbu ma'lumotlarni yuborgan ishtirokchi mamlakat haqida ma'lumotnomasi olish, shuningdek uning shaxsiy ma'lumotlaridagi noaniqlikarni to'g'irlanishini yoki g'ayriqonuniy ravishda kiritilgan shahsiy ma'lumotlarini o'chirib tashlanishini talab qilish huquqiga ega.



UZTURĒŠANĀS LAIKA PĀRSNIEGŠANA

Agar viza egasi istisno holatlardan kelib chiqib yashash muddatini uzaytirishi lozim bo'lib qolsa bu holda vizaning muddati yakunlanishiga qadar uzaytirishni so'rash uchun u **Fuqarolik migratsiya ishlari bo'yicha boshqarmaning** (Daugavpilsdag, Yurmala dagi, Liyepayadagi, Valmyieradagi yoki Ventspilsdag) yoki agar Rigada bo'lsa, faqat Riga shahar birinchi bo'linmasidagi) filialiga murojaat qilishi lozim. Agar vizaning egasi bunday uzaytiruv so'roviga rad javobi olsa yoki u uzaytirishni so'ramagan bo'lsa u jarimaga tortilishi, departatsiya qilinishi va/yoki uning Shengen hududiga qayta kirishi ta'qiqlanishi mumkin.



Pilsonības un migrācijas
lietu pārvalde



Eiropas Savienības
Iekšējās drošības fonds